KECH TURMUSH QURISH TENDENSIYASINING OILAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

TAFU talabasi: **Shamsiddinova Sitora**
Ilmiy raxbar : **Mavlyanova Surayo**
TAFU Psixologiyasi Kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kech turmush qurgan oilalar hamda kech turmushga chiqayotgan yigit-qizlardagi asosiy sabablari , va kech turmush qurgan yoshlarda oilaviy barqarorlik qay tarzda bo'lishining ham fiziologik ham psixologik ta'siri va oqibatlari haqida keltirib o'tilgan .
Kalit so'zlar: Tendensiyalar, barqarorlik , psixologik, fiziologik , yetuklik, ijtimoiy omillar va kech turmush qurish .
Аннотация : В данной статье рассматриваются основные причины поздних браков в семьях и среди молодых людей, вступающих в брак в позднем возрасте, а также физиологические и психологические последствия достижения стабильности семьи у молодых людей, вступающих в брак в позднем возрасте.
Ключевые слова : Тенденции, стабильность, психологические, физиологические факторы, зрелость, социальные факторы и поздний брак.
Abstract: This article discusses the main reasons for late marriages in families and young people who marry late, as well as the physiological and psychological effects and consequences of how family stability is achieved in young people who marry late.
Keywords: Trends, stability, psychological, physiological, maturity, social factors, and late marriage.

KIRISH

So'nggi yillarda jamiyatda yoshlar orasida kech turmush qurish tendensiyasi tobora rivojlanib bormoqda . Ushbu holatlarning yuzaga kelishida ko'proq ta'lim darajasining o'sishi , kasbiy rivojlanib borish , iqtisodiy tarafdan ham mustaqil bo'lish ,shaxsiy o'sishga intilish hamda ijtimoiy qarashlarning o'zgarishi bilan izohlanadi .Aynan bu maqolada kech turmush qurishning ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi . Oila muqaddas dargoh bu zaminda hamma narsa jufti bilan bo'lganidek insonlar ham juft qilib yaratilgan . Inson umri davomida har tomonlama rivojlanib ong-tafakkuri shakllanar ekan , o'ziga munosib deb bilgan inson bilan o'z vaqtida turmush qurishi kerak . An'anaviy qarashlarga ko'ra, erta turmush qurish ko'proq ijtimoiy maqbul deb hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda yoshlarning nikohni kechiktirish holatlari ko'paymoqda. Ushbu jarayon oilaviy munosabatlar sifatiga va barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

ASOSIY QISM

Kech turmush qurishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim va kasbiy rivojlanish: Yoshlar avvalo oliy ta'lim olish, kasb egallash va mehnat bozorida o'z o'rnini topishga intiladilar.

- Iqtisodiy omillar: Mustaqil uy-joy, barqaror daromad va moddiy tayyorgarlik nikohni kechiktirishga olib keladi.
- Psixologik yetuklikka intilish: Shaxslar o‘zini anglash, emotsional barqarorlik va mas’uliyatni his qilishni muhim deb biladilar.
- Ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishi: Zamonaviy jamiyatda individual erkinlik va shaxsiy maqsadlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Kech turmush qurish ko’plab hollarda oilaviy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo’lishi mumkin . Chunki, voyaga yetgan o’z hayot yo’lini bir tekisda olib borayotgan shaxslar o’z muammolarini ham bemalol hal etishga moyildir shu sabab ularda turmushi kech bo’lsada barqaror bo’ladi .Turmush o’rtog’ini tanlashda qarorlardan qochadi va ongli tarzda yondashiladi .

Shu bilan birga, kech turmush qurish ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin:

- Moslashuv qiyinchiliklari: Mustaqil hayotga o‘rganib qolgan shaxslar oilaviy moslashuvda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.
- Biologik omillar: Farzandli bo‘lish bilan bog‘liq muammolar oilaviy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.
- Qat’iy shakllangan xarakter: Yoshi ulg‘aygan sari shaxsiy odatlar va qarashlar mustahkamlanib, murosaga kelish qiyinlashadi.
- Ijtimoiy bosim**:** Jamiyatdagi stereotiplar psixologik bosimni kuchaytirishi mumkin.

MUHOKAMA

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki , oilaviy barqarorlik nikoh yoshi bilangina emas, balki psixologik tayyorgarlik , kommunikativ madaniyat va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash darajasi bilan belgilanadi . Kech turmush qurish barqaror yoki beqaror oila shakllanishini kafolatlamaydi ,muhimi nikohga oila qurishga ongli ravishda jiddiy yondashgan ma’qul . Kech turmush qurish tendensiyasi zamonaviy jamiyatning tabiiy jarayoni bo‘lib, u oilaviy barqarorlikka ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik va iqtisodiy yetuklik barqaror oila qurish imkoniyatlarini oshirsa, moslashuv va biologik omillar muayyan xavf omili bo‘lishi mumkin. Shu bois, yoshlarni oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlash, nikohdan oldingi maslahat va treninglarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar orasida nikohdan boshqa bir juft tanlashdan qo’rqish hissi ham turmushni kechikishiga olib keladi chunki, umr bo’yi birgalikda yashash begona inson bilan hayot-faoliyatini olib borish , fikrlarini qo’llab-quvvatlamasligi va ko’pincha niyatga ham bog’liq taraflari bo’ladi .

Qiz bola 16, 17 yoshlarda ham onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo’lishi mumkin, ammo bu yoshdagi yigit hali to’laqonli erkaklik vazifalarini bilmaydi ,ba’zida bu kelin tarafidan kuyov hurmat qilinmasligiga olib keladi. Yosh ulg’aygan sari turmush qurishga xohish-istaklar pasayadi, hamda o’ziga juft tanlashda bir qancha talablar kuchayadi .Hayotda mukammal o’zimiz xohlagandek inson albatta yo’q ,shu sababli tanlovni ko’p qilib turmush yoshini kechiktirmaslik kerak agar qanchalik yosh o’tsa tanlov murakkablashadi insonni talablari ko’payib boraveradi . Umr yo‘ldosh va farzandlar kishi

uchun sinov. Ularning injiqliklariga chidash, kamchiliklarini tuzatish, diniy bilimlarini kengaytirish, haqlariga rioya qilish, xohish va ehtiyojlari orasida muvozanat saqlash bilim, sabr, g‘ayrat va yetuklikni talab etadi. Inson kasal bo’lganda ,keksayganda ko’proq parvarishga muhtoj bo’ladi .Bunday vaziyatda unga yordam beradigan eng yaqini turmush o’rtog’idir keyin esa uning farzandlari yonida u uchun g’amxo’r bo’lishadi .Qur’on ifodasi bilan aytganda , eru-xotin bir-birlari uchun yopinchiqdirlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Olimlar fikricha :

Kech yoki erta turmush qurish emas ,balki psixologik tayyorgarlik,ijtimoiy yetuklik va ongli tanlov oilaviy barqarorlikning asosiy omilidir**.**

[14]Maslou ehtiyojlar ierarxiyasida nikohni yuqori bosqich — mehr va o‘zini namoyon qilish bilan bog‘laydi.

◈ Kech turmush qurganlar:

- moddiy va kasbiy barqarorlikka erishgan bo‘ladi,
- nikohni “majburiyat” emas**,** ongli tanlov sifatida qabul qiladi.

[15]Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, shaxs yaqinlik (intimlik) bosqichiga kirishdan oldin o‘z “Men”ini to‘liq shakllantirib olishi muhim.

◈ Kech turmush qurgan shaxslar ko‘pincha:

- o‘zini yaxshi taniydi,
- hayotiy maqsadlari aniq bo‘ladi,
- nikohda mustaqil va mas’uliyatli bo‘ladi.

Islom dinida nikoh-ibodat va sunnat hisoblanadi ammo, shariat erta yoki kech degan qat’iy yosh chegarasini belgilamaydi .Nikohga undash bor,ammo :

-majburiylik yo’q,

-tayyorgarlik asosiy shart .

[16]Imom G’azzoliy: ,,Nikoh kishini gunohdan saqlasa -afzal,agar ma’suliyatni ado eta olmasa – kechiktirish ma’qul.” Demak, shariatda kech turmush qurish gunoh emas, agar:

Zinodan saqlanilsa,

Axloqiy me’yorlar buzilmasa .

XULOSA

Xalqimizda azal-azaldan an’anaviy qarashlar mavjud bo’lib masalan:

,,Qiz bola erta turmushga chiqsa -baraka bo’ladi”

,,Yigit boshini erta oila bog’laydi” degan qarashlar asosan : iqtisodiy ehtiyoj,katta oila modeli ,jamoaviy hayot tarzi bilan bog’liq bo’lgan .Bugungi kunda zamonaviy milliy qarashlar ham yo’q emas :

Qizlarning oliy ma’lumotli bo’lishi ,kasb egallashi ,iqtisodiy mustaqillik natijada esa jamiyat kech nikohni ma’suliyatli tanlov,o’ylab qilingan qaror sifatida qabul qila boshladi ya’ni qaysidur qiz kech turmushga chiqsa u o’ylab ish tutgan yoki tanlamasdan

[14] A.Maslou
[15] E. Erikson
[16] Imom G’azzoliy

to'ri qilgan degan qo'llab-quvvatlashlar avj olgani yokida yigitning bir tanlovda qolmasdan ko'proq narsalarga ega bo'lishini kutib oilani kechiktirishini ham bugungi kunda qo'llovchilar ko'p natijada, u yoshlar ongida demak hali yana vaqt bor degan xulosa keladi afsuski,kech oila qurganlikning salbiy taraflarini faqatgina keyinchalik har bitta qadamda insonga pand beradi misol qilib aytganda, birinchi navbatda yigitlarda ham qizlarda ham sog'likka ta'sirini o'zaro muloqotlarda bosqichma-bosqich ko'rsatadi .

Statistika shuni ko'rsatadiki, 27-32 yosh oralig'ida qurilgan nikohlar ajrimga kamroq uchraydi .

Kech turmush qurgan oilalarda:

- qarorlar birgalikda qabul qilinadi,
- iqtisodiy muammolar kamroq bo'ladi.

⬙ Psixologlar fikricha, 30 yoshdan keyin turmush qurgan yoshlarda :

- nizolarni zo'ravonliksiz hal qiladi,
- murosaga tez keladi.

⬙ Ammo salbiy tomoni ham bor:

- moslashuv jarayoni biroz sekin kechadi,
- shaxsiy erkinlikdan voz kechish qiyinroq bo'lishi mumkin.

Psixologiyada nikohning muvaffaqiyati bevosita shaxsning psixologik yetukligi bilan bog'liq .

Erta nikohda ba'zan:

Ijtimoiy bosim, yosh o'tib ketmasin degan qo'rquv ustun bo'lishi mumkin.

Kech turmush qurishda esa:

Nikoh-ongli tanlov , juft tanlashda real baholash,romantik illuziyaning kamligi. Bu holat psixologiyada „realistik nikoh modeli"deb ataladi .Shu sababli psixologlar kech turmush quruvchilarga o'zaro kutishlarni ochiq muhokama qilishni barcha har qanaqa vaziyatlarni ochiq gaplashishni tavsiya etadi .

„Ongli,ma'suliyatli va axloqli nikoh-eng to'g'ri nikohdir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erikson, E. Childhood and Society. — New York: W. W. Norton & Company, 1963.
2. Bowlby, J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. — London: Penguin Books, 1982.
3. Maslow, A. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1970.
4. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development. — Harvard University Press, 1979.
5. Qur'oni Karim. (O'zbek tilidagi tarjima va tafsirlar).
6. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih (Sahih Buxoriy).
7. Imom Muslim. Sahih Muslim.
8. G'azzoliy, Abu Homid. Ihyo ulum ad-din. — Nikoh va axloq boblari.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Otajonov O. Oila pedagogikasi va psixologiyasi**.** — Toshkent: O'qituvchi, 2015.

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE